

YOZMA NUTQ KO'NIKMASI – MULOQOT MADANIYATINING ASOSIY UNSURI

Rajabova Feruza

Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyoti universiteti,

O'zbek tili va adabiyoti fakulteti 311-guruh talabasi

Tel: +998909752019

Annotatsiya: Mazkur maqolada yozma nutq ko'nikmasining muloqot madaniyatidagi o'rni va ahamiyati yoritilgan. Yozma nutq nafaqat til, balki tafakkur, axloqiy-me'yoriy qadriyatlarning ifodasi sifatida talqin etiladi. Maqolada kuzatuv va tajriba metodlari asosida yozma nutq ko'nikmasining rivojlanishi tahlil qilingan, o'quvchilarning yozma muloqotdagi kamchiliklari aniqlanib, ularni bartaraf etishga qaratilgan uslubiy takliflar berilgan. Shuningdek, zamonaviy texnologiyalar, milliy adabiyot va kitobxonlik orqali yozma nutqni shakllantirishning samarali yo'llari ko'rsatib berilgan. Maqola umumta'lim maktablari o'qituvchilari, metodistlar hamda til ta'limi bilan shug'ullanuvchi tadqiqotchilar uchun foydali bo'lishi mumkin.

Kalit so'zlar: yozma nutq, muloqot madaniyati, til ko'nikmasi, kuzatuv metodi, tajriba metodi, ta'lim jarayoni, o'quv faoliyati, interaktiv topshiriqlar, adabiy meros, kitobxonlik madaniyati, yozma muloqot, o'quvchi nutqi.

Abstract: This article highlights the role and importance of written speech skills in the culture of communication. Written speech is interpreted as an expression of not only language, but also thought, moral and normative values. The article analyzes the development of written speech skills based on observation and experimental methods, identifies students' shortcomings in written communication, and provides methodological proposals aimed at eliminating them. It also shows effective ways to form written speech through modern technologies, national literature, and reading. The article may be useful for secondary school teachers, methodologists, and researchers involved in language education.

Key words: written speech, communication culture, language skills, observation method, experimental method, educational process, learning activity, interactive tasks, literary heritage, reading culture, written communication, student speech.

Bugungi globallashuv va axborot texnologiyalari tez sur'atlar bilan rivojlanayotgan davrda insonlarning muloqot madaniyati tobora muhim ahamiyat kasb etmoqda. Ayniqsa, yosh avlod vakillarida bu madaniyatni shakllantirish ta'lim tizimining asosiy vazifalaridan biri bo'lib bormoqda. Muloqot madaniyati deganda ko'p hollarda og'zaki nutq ko'zda tutiladi, biroq yozma nutq ham uning ajralmas, zaruriy va samarali tarkibiy qismidir. Yozma nutq orqali inson o'z fikrini to'g'ri, aniqlik bilan, mantiqan izchil tarzda bayon etadi, bu esa jamiyatda madaniy aloqa, fikr almashish, axborot yetkazish va qabul qilishning asosiy shakllaridan biridir.

Yozma nutq – bu nafaqat lingvistik faoliyat, balki ijtimoiy-madaniy ko'nikma, tafakkur mahsuli va axloqiy qadriyatlar ifodasidir. Aynan shu boisdan ta'lim jarayonida yozma nutq ko'nikmasini rivojlantirish o'quvchilarning muloqotga tayyorligi, fikrini mustaqil ifoda eta olish, yozma muloqotda aniq, lo'nda, madaniyatli bo'lishi kabi fazilatlarni shakllantirishga xizmat qiladi. Har bir o'quvchining shaxsiy rivojlanishi, jamiyatda o'z o'rnini topa olishi, kasb faoliyatida muvaffaqiyat qozonishi ham mazkur ko'nikmaga bog'liqdir.

Ta'lim jarayonida yozma nutqni o'rgatish faqat grammatik bilimlar bilan cheklanib qolmasligi lozim. Chunki yozma nutq bu – til va tafakkurning uzviy birligi. Unda so'z tanlovi, uslub, mantiqiy izchillik, tuzilma, tahlil va ifoda uslubi muhim rol o'ynaydi. Buning uchun esa o'qituvchi faqat nazariy ma'lumot bilan emas, balki o'quvchini yozishga jalb etuvchi, ularni o'ylashga, fikrini mustaqil shakllantirishga undovchi metodlardan foydalanishi kerak. Shu maqsadda, yozma nutq ko'nikmasini shakllantirishda kuzatuv va tajriba metodlaridan foydalanish dolzarbdir.

Yozma nutq ko'nikmasini shakllantirishda kuzatuv metodi asosiy metodlardan biri sifatida xizmat qiladi. Ushbu metod orqali o'quvchilarning kundalik yozma mashg'ulotlari, matn yozishdagi uslubi, imloviy va uslubiy xatolari tizimli ravishda qayd etiladi. Dastlab, 6–7-sinflar o'quvchilari bilan o'tkazilgan yozma ishlar tahlili shuni ko'rsatdiki, o'quvchilar asosan fikrni ifoda qilishda so'z tanlashda qiynaladilar, gaplar orasida mantiqiy bog'liqlikni

saqlashda sustlik mavjud. Shu asosda o'quvchilarning yozma nutq ko'nikmalarini yaxshilashga qaratilgan maxsus mashqlar tizimi ishlab chiqildi va ularning rivojlanishi bosqichma-bosqich kuzatib borildi.

Kuzatuv jarayonida aniqlangan muammolar asosida tajriba metodiga asoslangan o'quv faoliyati yo'lga qo'yildi. Tajriba metodi yordamida 7-sinf o'quvchilari bilan ikki guruhda ishlov berildi: nazorat guruhi an'anaviy usulda ta'lim oldi, tajriba guruhi esa yozma nutqni rivojlantirishga qaratilgan interaktiv topshiriqlar, muloqotga asoslangan yozma mashqlar, matnga asoslangan savol-javob, kreativ yozish (ertak yozish, shaxsiy kundalik yuritish) kabi ishlar bilan shug'ullandi. Bir oylik tajriba natijalari shuni ko'rsatdiki, tajriba guruhi o'quvchilarining yozma ifoda qilish ko'nikmasi, matn tuzish qobiliyati va nutq madaniyati sezilarli darajada yaxshilangan.

Yozma nutq ko'nikmasini shakllantirishda ta'limning didaktik tamoyillari muhim o'rin tutadi. Xususan, izchillik, ilmiylik, faollik va ongli o'zlashtirish kabi didaktik yondashuvlar orqali o'quvchilar yozma muloqotga ongli, mas'uliyatli yondashishni o'rganadilar¹. Bu borada o'qituvchining metodik mahorati, topshiriq tuzishdagi kreativligi va o'quvchilar bilan teskari aloqasi muhim ahamiyatga ega. Shuningdek, differensial yondashuv, ya'ni har bir o'quvchining individual imkoniyatlarini inobatga olgan holda mashq berish yozma nutq rivojida ijobiy natija beradi².

Zamonaviy ta'lim jarayonida yozma nutq ko'nikmasini rivojlantirishda raqamli texnologiyalarning roli ortib bormoqda. Bloglar, elektron portfellar, onlayn insholar, yozma forumlar va muhokama platformalari o'quvchilarga o'z fikrini yozma ravishda bayon qilishda interaktiv imkoniyatlar yaratadi. Xususan, "Google Docs" yoki "Padlet" kabi vositalar orqali guruh bo'lib yozish, bahs-munozaralar o'tkazish, tahrir qilish va o'zaro fikr bildirish imkoniyatlari paydo bo'ladi. Bu vositalar nafaqat texnik ko'nikmalarni, balki muloqot madaniyatini ham rivojlantiradi. O'quvchi nafaqat yozadi, balki yozgan matniga

¹ Mahmudov N. O'qituvchi nutqi madaniyati. –Toshkent: Alisher Navoiy nomidagi O'zbekiston Milliy kutubxonasi nashriyoti, 2007.

² Xasanboyeva Shoiraxon. Yozma nutqni rivojlantirish. Proceedings of international Conference on Educational Discoveries and Humanities Hosted online from Plano, Texas, Usa - 2022

nisbatan tanqidiy yondashadi, boshqa fikrlarni hurmat bilan qabul qiladi, o'z bayonini takomillashtirishga harakat qiladi.

Yozma nutq ko'nikmasi xalqaro miqyosda ham pedagogik tadqiqotlarning e'tibor markazidadir. Masalan, PISA xalqaro baholash tizimida o'quvchilarning o'qish va yozish ko'nikmalari alohida o'rganiladi. Unga ko'ra, o'quvchi nafaqat matnni tushunishi, balki unga asoslanib fikr yurita olishi, izchil mulohaza bildira olishi kerak. Shu nuqtai nazardan qaraganda, yozma nutq bu faqat o'z fikrini yozish emas, balki mustaqil fikrlash, muammo tahlil qilish, mantiqiy izoh berish va isbotlash faoliyatidir. O'zbekiston ta'lim tizimida ham bu jihatni kuchaytirish dolzarb ahamiyat kasb etadi³.

Yozma nutqning tarbiyaviy imkoniyatlari ham beqiyosdir. O'quvchi fikrini yozma shaklda bayon qilganda, u ongli ravishda tanlov qiladi: qaysi so'zni ishlatish kerak, qanday ifoda muloqotda samara beradi, qanday jumla ohangdor va tushunarli bo'ladi. Bu esa til bilan bir qatorda tafakkurni, didni, estetik tuyg'uni, javobgarlik hissini tarbiyalaydi. Bunday yondashuvlar, ayniqsa, o'rta ta'lim muassasalarida qo'llansa, natijada yozma muloqotda aniq, lo'nda, madaniyatli fikr bayon eta oladigan avlod shakllanadi.

Yana bir muhim jihat – yozma nutq madaniyatini rivojlantirishda milliy meros va adabiyotning o'rni. O'quvchilar Alisher Navoiy, Abdulla Qodiriy, Oybek, Cho'lpon kabi ulug' adiblarning asarlarini o'qish va tahlil qilish orqali nutqning ma'naviy, estetik, madaniy mezonlarini anglab yetadilar. Ulardagi badiiy tahlillar, obrazlar, til boyligi, fikrning ravonligi yosh avlodning yozma nutqini boyitadi. Shunday ekan, yozma nutqni rivojlantirish bo'yicha olib borilayotgan ishlarda adabiy merosga tayanuvchi metodik yondashuvlar muhim ahamiyat kasb etadi.

Shuningdek, o'quvchining yozma nutqidagi muvaffaqiyati uning kitobxonlik madaniyati bilan bevosita bog'liq. Ko'p o'qigan o'quvchi ko'p so'z boyligiga ega bo'ladi, fikrini aniq ifodalashda qiynalmaydi, yozma nutqining mantiqiy, uslubiy va grammatik tomonlarini o'zi boshqara oladi. Shu bois ta'lim jarayonida yozma mashqlar bilan bir qatorda

³ Xasanboyeva Shoiraxon. Yozma nutqni rivojlantirish. Proceedings of international Conference on Educational Discoveries and Humanities Hosted online from Plano, Texas, Usa - 2022

o'qish madaniyatini rivojlantirish ham birgalikda olib borilishi lozim. Kitobdan olingan ma'lumotlar, obrazlar, voqealar orqali yozilgan insholar yozma nutqning boyligi va madaniyatini oshiradi.

Xulosa sifatida ta'kidlash joizki, yozma nutq ko'nikmasini rivojlantirish, bu orqali muloqot madaniyatini shakllantirish zamonaviy ta'limning muhim vazifalaridan biridir. Bunda metodik yondashuvlar, xalqaro tajriba, raqamli texnologiyalar, milliy adabiyot, kitobxonlik, kuzatuv va tajriba metodlari o'zaro uzviy bog'liq holda ishlatilishi zarur. Bu jarayonda o'qituvchining faolligi, o'quvchining motivatsiyasi va o'quv muhiti bir butun tizim sifatida qaralishi kerak.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

Zunnunov A., Hotamov N., Esonov J., Ibrohimov A. Adabiyot o'qitish metodikasi. – Toshkent: O'qituvchi, 1992.

To'xliyev B. Adabiyot o'qitish metodikasi. – Toshkent: O'qituvchi, 1992.

Mahmudov N. O'qituvchi nutqi madaniyati. –Toshkent: Alisher Navoiy nomidagi O'zbekiston Milliy kutubxonasi nashriyoti, 2007.

Safo Matjon. Maktabda adabiyotdan mustaqil ishlar. (O'qituvchilar uchun metodik qo'llanma). –Toshkent: O'qituvchi, 1995.

Xasanboyeva Shoiraxon. Yozma nutqni rivojlantirish. Proceedings of international Conference on Educational Discoveries and Humanities Hosted online from Plano, Texas, Usa - 2022

Kadamova Mohinur Mamurbek qizi. Boshlang'ich sinf o'quvchilarning og'zaki va yozma nutqini rivojlantirish usullari. Международный научный журнал No7(100), часть 2 «Научный импульс» Февраль, 2023